

ULUG‘ NAVOIYSHUNOS HAYRATI

Zulayho ABDURAHMON,
*filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
katta ilmiy xodim*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20676919>

Annotatsiya. *Abduqodir Hayitmetov dunyo navoiyshunosligida ham o‘z o‘rniga sohib o‘zbek olimlaridan sanaladi. Maqolada olimning “Hayrat ul-abror” dostoni nashri, nasriy bayoni xususidagi izlanishlaridan bahs etildi. Shuningdek, doston g‘oyasi hamda badiiyati borasidagi qarashlari ham tahlilga tortildi.*

Kalit so‘zlar: *navoiyshunos, doston, Xamsa, hamd, na‘t, munojot, matn, nasriy bayon.*

Аннотация. *Абдукадир Хайитметов считается одним из узбекских учёных, занимающих достойное место в мировом навоиведении. В статье рассматриваются исследования учёного, посвящённые изданию поэмы «Хайрат ул-аброр» и её прозаическому изложению. Также анализируются его взгляды на идею и художественные особенности данной поэмы.*

Ключевые слова: *навоивед, поэма, «Хамса», хамд, наът, муножот, текст, прозаическое изложение.*

Annotation. *Abduqodir Hayitmetov is regarded as one of the prominent Uzbek scholars who holds a significant place in the field of Navoi studies worldwide. This article discusses the scholar’s research on the publication and prose interpretation of Hayrat ul-Abror. In addition, his views on the ideological content and artistic features of the epic are analyzed.*

Key words: *Navoi scholar, epic, Khamsa, hamd, na‘t, munajat, text, prose interpretation.*

Navoiyshunoslik muhtasham bir tarixga ega. Shoir asarlari bilan zamondosh sifatida dunyoga kelgan navoiyshunoslik bugunga qadar katta bir davrni bosib o‘tdi, ma‘lum bir tadrijiy takomilga ega bo‘ldi. Ammo bu ulkan tarixda XX asr navoiyshunosligining va atoqli navoiyshunos Abduqodir Hayitmetovning alohida o‘rni borligi hammaga ma‘lum. Ustoz adabiyotshunosning ilmiy merosi rang-barang bo‘lishiga qaramay, mutafakkir shoir Alisher Navoiy ijodiga doir fundamental tadqiqotlari soha rivojidadagi noyob xazinadir. Domlaning nomzodlik va doktorlik tadqiqotlari ham aynan Alisher Navoiy hayoti hamda ijodining o‘rganilishi bilan aloqadorligi ham ustozning adabiyot olamidagi sir-sinoatni Alisher Navoiy orqali anglash va boshqalarga tushuntirish yo‘lidagi zahmatlarini ko‘rsatadi. “Alisher Navoiy “Xamsa”sini nasriylashtirish: an‘ana, tabdil va talqin” nomli nomzodlik dissertatsiyasi navoiyshunoslikdagi dolzarb muammoning yechimi sifatida yaratilgan. Olimning keyingi ishlaridagi muvaffaqiyatni ham ta‘minlagan. Abduqodir Hayitmetovning Nizomiddin Amir Alisher Navoiy shaxsiyati va ijodiyotiga hayratu muhibligi, jumladan, “Hayrat ul-abror” dostoni bilan aloqadordir. Domla shoirning lirik va epik



merosini birday o'rgandi hamda tahlil etdi. O'z davri navoiyshunosligining metodologik tamoyillarini yaratib, sohadagi oydin yo'lni ko'rsatdi. Ammo mening nazarimda, ustozning ilmiy izlanishlaridagi katta o'rinni egallagan tadqiqotlar, shubhasiz, boshqa dostonlar g'oyasi uchun asos vazifasini o'tagan “Hayrat ul-abror” yuzasidan olib borilgan. Zero, Abduqodir Hayitmetov mazkur dostonni so'zma-so'z nasriy bayonini yaratdi va shoirning maslakdagi ulug'vorligi, badiiyatdagi go'zalligini yuragiga tamomila singirdi. Matnshunoslik zahmati bu kabi ishlarning mashaqqatidan xabar beradi. Zabardast navoiyshunoslar tomonidan “Hayrat ul-abror”ning nashr va nasriy bayonlari bir qadar amalga oshirilgan edi. Ammo jiddiy nashrlardan biri sifatida e'tirof etiladigan Navoiy asarlarining o'n besh tomligi uchun Abduqodir Hayitmetov matnshunos va noshir sifatida “Hayrat ul-abror”ni qayta tahrir qildi. Hatto Alisher Navoiy asarlarining rus tilidagi nashri uchun ushbu dostonni nasriy tarjima qilish vazifasini ham Abduqodir Hayitmetov mukammal ado etdi. Tarjima jarayonlarida ham doston Abduqodir Hayitmetovning shuuru ko'ngliga yana bir bor o'tirdi. Olimning tarjimadagi ushbu mahoratini ulug'lab N.Komilov shunday degan edi: “Bu o'z xarakteri jihatidan badiiy tarjimaga yaqin turadigan ishdir”.

Abduqodir Hayitmetovning “Hayrat ul-abror” mazmun-mohiyati, tuzilishi, dunyo xamsashunosligidagi o'rni haqidagi: “Hayratul-abror» programma xarakterdagi asar bo'lib, undagi g'oyalar keyingi dostonlarda noyob syujetlar, xilma-xil qahramonlarning yorqin obrazlari, ajoyib hikoyalar va original badiiy san'atlar orqali yanada rivojlantirildi hamda chuqurlashtirildi. «Xamsa» Navoiy ijodining cho'qqisi bo'lib, keyingi o'zbek va boshqa turkiy xalqlar adabiyotlari taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. XV asrdan keyingi ozarbayjon, turkman, tatar, uyg'ur, turk, qoraqalpoq va boshqa xalqlar she'riyatini Navoiy va uning «Xamsa»si ta'sirisiz tasavvur etish qiyin” singari ilmiy-nazariy qarashlari bugun ham tadqiqotlar uchun tayanch bo'lib xizmat qilmoqda.

Alisher Navoiy katta shaxsiyat. Uning “qalb daftari”ni o'qishga uchun necha-necha zabardast olimlar va qancha-qancha zamonlar kerakligi ko'rinib turgan haqiqatga aylandi. Navoiy hayot yo'li va ijodiy merosi haqidagi tasavvurlarning ma'lum bir jihatlari XX asr navoiyshunosligida ochib berildi. Asarlarning shakliy tomonlari, badiiyat go'zalligi haqidagi fikrlar ilmiy asoslandi. Navoiyning o'zbek tilini she'riyat tiliga aylantirgan ijodi asarlari bilan dalillandi. Qisqasi, ushbu davrda Navoiyning daho siymosi millat ko'z o'ngida gavdalantirildi. Bunda Abduqodir Hayitmetovning hissasi kattadir. Olimning mingga yaqin tadqiqotlarining yarmidan ko'pi Navoiy asarlari to'g'risidagi izlanishlardir.



Men ta'bir joiz bo'lsa, XX asrni navoiyshunoslikdagi eng hasratli tarix deb atagan bo'lar edim. Zero, navoiyshunoslik poydevorini qo'ygan, kitobxonga tayyor matni a'lo darajada yetkazgan, bolalik ruhiyati bilan shoirga oshno bo'lgan, madrasalar ta'limini ko'rgan olimlarning ovozi ma'lum bir qoliplarga solingan zamon adabiyotshunosligining mafkura devorlari ichida qolip ketdi. Ular adabiyotning vazifasini, g'oyasini, badiiyat asrorini juda yaxshi bilishardi. Irfoniy mazmun, so'fiyona hayot tarzi, tariqat she'riyati hikmatining nafaslarini to'ygan olimlar edi. Ularning ota-onalari yassaviyxonlik, navoiyxonlik, bedilxonlikning nafis majlislarida sharq adabiyoti ma'rifatidan bahramand bo'lgan insonlar edi. Ammo ko'p maqsad va fikrlari, adabiyotning kuchi va qudrati haqidagi qarashlari “feodal tuzumiga qarshi isyonlar” haqidagi tahlillar soyasida qolib ketdi. Mana shunday holda ham ularning mulohazalari bulutlar orasidagi chaqmoq kabi hozir ham haqiqat yo'lini ko'rsatadi. Ustoz adabiyotshunos Abduqodir Hayitmetov ham 1989-yilda nasriy bayoni bilan nashr qilingan “Hayrat ul-abror” dostoni uchun “Buyuk she'riy xazina” nomli salmoqli so'zboshida shunday yozadi: “Biroq «Xamsa»ni o'rganish, tadqiq etish ishlariga so'nggi nuqtani qo'yish mumkin emas. Chunki bu xil asarlar haqida har bir yangi avlod so'zini aytadi va o'z bahosini beradi. Demak, Navoiy «Xamsa»si bo'yicha ilmiy tekshirish, izlanish olib borish, faollik bilan muhokama-mulohaza yuritish, musohaba va munozaralar uyushtirish bundan buyon ham hamisha davom etadi”. Domla isiqlol davrida o'z armonlarini amalga oshirishga bir qadar ulgurgan baxtli navoiyshunoslardan. “Hayrat ul-abror” dostonining daslabki nasriy bayonida asarning hamd, na't, munojot kabi qismlari yo'q edi.

Domla go'yo umri davomida hayrat bilan oshno bo'lgan. Doston 1991 yilda 20-jildlik mukammal asarlar to'plamining 7-jildida Ibrohim Haqqul bilan hamkorlikda yangi nashrga tayyorlangan. Unda izoh va lug'atlar berilgan. Tushurib qoldirilgan boblar haqida atroflicha izoh berilgan. 2004 yilda domla oldingi nashrlaridagi kamchiliklarni tuzatib, barcha boblarni kiritib “Hayrat ul-abror”ning nasriy bayonida mukammal nashrni dunyoga keltirdi. “Hayrat ul-abror” dostoni bir necha marta, turli tarzda nasriy bayon qilindi. Va bu izlanishlar hali davom etadi. Ammo ularning barida Abduqodir Hayitmetovning zakosi bilan yaratilgan nasriy bayon tayanch bo'layotganini baralla aytish lozim. Umar Boqiy, Domla matnshunoslikdagi faoliyatini ilmiy tahlillari bilan hamisha to'ldirgan. Natijada, matn va tahlil uyg'unligidagi aniq, xolis tadqiqotlar bilan navoiyshunoslik boyidi. Mana shunday katta izlanishlaridan biri “Xamsa”da islom nuri” maqolasidir. To'rt qismdan iborat mazkur maqola hamd, munojot, na'tlar tahlili, shuningdek, dostonning g'oyasini ko'rsatgan “Hayrat” bobining yangicha tahlillarini qamrab olgan. Shoirning ijtimoiy,



axloqiy qarashlari aks etgan boblar ham tahlilga tortilgan. Domlaning: “Navoiyning inson konsepsiyasi, ayniqsa, uning «Xamsa» dostonlarida o‘zining g‘oyat chuqur ifodasini topdi. Navoiy insonning kelib chiqishi, mohiyati, tabiat va jamiyatdagi o‘rni masalalari talqinida niyati xolis, pok va hamma vaqt ijobiydir. U «Hayrat ul-abror» dostonida tabiat qo‘ynidagi, olamdagi barcha narsalarni Xudo yaratgan, deb tushuntirishga harakat qilar ekan, bularning hammasini yaratishdan uning ko‘zlagan bosh maqsadi insonni yaratish («Lek boridin g‘araz inson edi») deydi. Ayni vaqtda, Navoiy fikricha, u insonni har jihatdan – aqlda ham, husnda ham «komil», o‘ziga sirdosh («Sirri nihoningg‘a dog‘i homil ul») qilib yaratgan. Shuning uchun borliq, tabiat, hatto ilohiyot sirlari («ganji ilohiy») ni insondan boshqa biron mavjudot bilmaydi, bila olmaydi va bilishga intilmaydi ham” fikrlari bugun genial shoir ijodini o‘rganish uchun davom ettirilishi zarur dolzarb mavzulardan biridir. Olim Navoiyni o‘qish, o‘zlikni, odamiylikni anglash deb tushungan holda shunday yozadi: “Navoiy har dostonida insonning inson bo‘lib yaratilganini uning uchun katta baxt deb izohlashga, buni har bir insonning ongiga yetkazishga intiladi”. Domlaning insonparastligi, sevimli shoiri Alisher Navoiy kabi odamlarga shafqati, muhabbati nurli yuzlaridan ayon edi. Ustozimiz Ibrohim Haqqul: “Katta ijodkorlar bilan adabiyotda katta shaxsiyat ham kirib kelishi kerak” der edi. Bu fikr, bu orzu,menimcha, adabiyotshunoslikka ham tegishli. Abduqodir Hayitmetov buyuk olim, sharafli shaxsiyat edi. Ilm izlab 2000 yillarda institut ostonasiga kelgan yoshlar qatorida men ham Abduqodir Hayitmetovning ma’rifat haybatiga taslim bo‘lganman. Domlaning suhbatlarida nasiba olganimdan, duolarini olish baxtiga musharraf bo‘lganimdan mamnunman. Ustoz navoiyshunosning ruhlari shod, makonlari firdavsi jannat bo‘lsin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. Тошкент: Фан, 1970.
2. Алишер Навоий “Ҳайрат ул-аброр” (Насрий баён) Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974.
3. Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин (Насрий баён ва сўнгсўз муаллифи) – Тошкент: 1975. Адабиёт ва санъат нашриёти.
4. Ҳайрат ул-аброр // Ўзбек адабиёти тарихи. II том.Т.: Фан.1977.
5. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр (Насрий баён қилувчи А. Ҳайитметов) // Ёзувчи, 2004.
6. Комилов Н. Хази́на калити // Гулистон, 1976. №2. -Б. 28-29.